

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QOSIMOVA HILOLA JAMSHEDOVNA

**BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY
SANOATLASHUVNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Qosimova Hilola Jamshedovna

Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni kuchaytirish
yoʻnalishlari3

Косимова Хилола Жамshedовна

Направления усиления региональной индустриализации на основе стратегии
устойчивого развития33

Qosimova Hilola Jamshedovna

Directions for strengthening regional industrialization based on the sustainable
development strategy67

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ
List of published works.....71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QOSIMOVA HILOLA JAMSHEDOVNA

**BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY
SANOATLASHUVNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt361 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xidirova Gavhar Rustamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "30" oktabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865)221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (742 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865) 221-25-87, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "10" oktabr dagi 30 -raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

N.S. Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.N. Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro miqyosda turli milliy iqtisodiyotlarda ekologik standartlarga javob beradigan yanada ilg'or mahsulotlar ishlab chiqarish orqali mahalliy kompaniyalarning global qiymat zanjiridagi ulushini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda va barqaror rivojlanish strategiyalari mintaqaviy rivojlanishning asosiy elementi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, "global sanoat ishlab chiqarishida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmida Xitoy, AQSh, Yaponiya va Germaniya kabi mamlakatlar yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, sanoat sohasida yaratilayotgan yalpi global qo'shilgan qiymat hajmining 30,9 foizi birgina Xitoy hissasiga to'g'ri kelib, mamlakat sanoat ishlab chiqarishida raqamli transformatsiyalashuv hamda robotizatsiya darajasi nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlanadi"¹.

Jahonda barqaror rivojlanish yondashuviga asoslangan jamiyatni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar butun dunyo bo'ylab kengayib, bunda strategic vazifalar qatoriga har bir mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal darajada foydalanish, qiyosiy tahlil orqali global va mintaqaviy tajribani oshirish, umumiy ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash milliy strategiyalariga ekologik standartlarni kiritish, raqamli transformatsiya strategiyalari va mahalliy sanoatning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish kiradi.

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy sanoatlashuv borasidagi islohotlarining ustuvor yo'nalishlari respublika viloyatlari, jumladan, ulardagi shahar va tumanlarning ishlab chiqarishini rivojlantirishda ularning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion faollikni ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish zanjirini to'liq o'zlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. So'nggi yillarda "mamlakatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari turlarini kengaytirish orqali aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirish"² hisobidan respublika hududlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha islohotlarga ustuvor ahamiyat berilib, mintaqalarni barqaror rivojlantirishda mahalliy sanoatlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni hududiy ixtisoslashuv orqali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirish dasturlari bilan kuchli darajadagi bog'liqlikda ishlab chiqilmoqda. Ushbu holat mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli, 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-sonli, 2022-yil 2-

¹ Thomas D. Annual Report on the U.S. Manufacturing Economy: 2023. (National Institute of Standards and Technology, Gaithersburg, MD), NIST Advanced Manufacturing Series 600-13-upd1, 2023. – 64 p.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatni yanada oshirish to'g'risida"gi PQ-4426-son qarori. 24.08.2019. <https://lex.uz/ru/docs/4486600>

dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli, 2023-yil 12-oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-169-sonli Farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Barqaror sanoatlashuv orqali mintaqaviy strategik rivojlanishning iqtisodiy ahamiyati, uning mohiyatiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy kontseptual asoslar, amalga oshirish tamoyillari, amalga oshirish usullari hamda samaradorlikni baholashning ilmiy asoslari va usullari G. Petrakos, D. Puga, L.A. Rissi, M. Amiti, D.R. Davis, R. Dobrinskiy, G. Ellison³ kabi uzoq xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Yaqin xorijlik T.G. Kosenko, R.M. Pritkov, V.G. Gusakov, A.V. Kotov⁴ kabi olimlar tomonidan bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish masalalari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonlik B.Ruzmetov, A.T.Yusupov, T.M.Axmedov, F.T.Egamberdiyev, E.A.Axmedov, N.To‘xliyev, Q.Q. Sharipov, A.B.Nizomov, D.Sh.Yavmutov, G.R.Xidir ova⁵ kabi iqtisodchi olimlar tomonidan mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini amalga oshirishning milliy xususiyatlari tadqiq etilgan.

³ Petrakos G. (1996), ‘The regional dimension of transition in Eastern and Central European Countries: An assessment’, *Eastern European Economics*, vol. 34 (5), – pp. 5–38; Puga D. (1999), ‘The rise and fall of regional inequalities’, *European Economic Review*, vol. 43, – pp. 303–334.; Ricci L.A. (1999), ‘Economic geography and comparative advantage: Agglomeration versus specialisation’, *European Economic Review*, vol. 43, – pp. 357–377; Amiti M. (1998), ‘New trade theories and industrial location in the EU: A survey of evidence’, *The Oxford Review of Economic Policy*, vol. 14 (2), – pp. 45–53; Davis D.R., Weinstein, D.E., Bradford, S.C. and Shimpo, K. (1996), ‘Using international and Japanese regional data to determine when the factor abundance theory of trade works’, *American Economic Review*, vol. 87, – pp. 421–446; Dobrinsky R. (1995), ‘Economic transformation and the changing patterns of European East-West trade’, in R. Dobrinsky and M. Landesmann (eds), *Transforming economies and European integration*, Aldershot: Edward Elgar, – pp. 86–115; Ellison, G. and Glaeser, E. (1997), ‘Geographic Concentration in U.S. Manufacturing Industries: A Dartboard Approach’, *Journal of Political Economy*, vol. 105 (5), – pp. 889–927

⁴ Косенко Т.Г., Дудка Т.Н. Оценка специализации и организационной структуры предприятия / Новая наука: современное состояние и пути развития: Международное научное периодическое издание по итогам Международной научно-практической конференции (9 февраля 2016 г., г. Оренбург). / в 2 ч. Ч.1 – Стерлитамак: РИЦ АМИ, 2016. – С.137; Прытков Р.М. Особенности Производственной специализации Оренбургской области // Вестник ОГУ. № 8 (169) / август 2014. – С. 127; Национальная академия наук Белоруссии: энциклопедический справочник / ред.: В.Г. Гусаков [и др.]. – Минск: Белорусская наука, 2017. – 599 с.; Котов А.В. Концепция региональной “умной специализации”: опыт Германии: [Монография] / А.В. Котов. – М.: Ин-т Европы РАН, 2022. – 152 с.

⁵ Юсупов А. Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана: диссертация доктора экономических наук: / Академия наук Республики Узбекистан. – Ташкент, 1991. – 298 с; Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации

Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar kompleks tarzda, tizimli, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilmagan. Ushbu holat tadqiqot bag'ishlangan ilmiy masalaning dolzarbligi, fanda yetarli darajada tadqiq etilib, o'zining to'liq yechimini topmaganligidan dalolat berib, mavzuni tanlanishiga asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish bo'yicha tegishli ilmiy asoslangan takliflar, hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

barqaror rivojlanish strategiyasining mazmuni, mohiyati va tarkibiy tuzilishini tadqiq etish;

mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish usullari tahlil qilish;

barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishning ilg'or xorij amaliyotini qiyosiy taqqoslash;

Yangi O'zbekistonda mintaqaviy sanoatlashuvni tartibga solish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

respublika hududlari sanoatlashuvini barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish tendensiyalarini baholash;

O'zbekistonning barqaror rivojlanish indeksi va uning tarkibiy komponentlari holatini aniqlash;

barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish;

o'rta muddatli istiqbolda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muqobil prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqarish sanoati tarmog'i hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini mamlakat hududlarida sanoatlashuv jarayonlarini barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirilishida sodir bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy, hamda ekologik yo'nalishlardagi o'zaro aloqador hisoblangan munosabatlar majmuidan tashkil topadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot usullariga tarixiy va nazariy tadqiqotlar, induktiv va deduktiv tadqiqot turlari, qiyosiy tahlil va tanlab kuzatish, monografik va tizimli tahlil,

производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. – Т.: Фан, 1995. – 231 с.; Qayumov A.A., F.T.Egamberdiyev va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. – T., 2004. – 116 b; Ahmedov E.A. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. – T., 2003. – 304 b.; To'xliyev N. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – T.: O'zME. 2020. – 204 b.; Шарипов Q.Q. Миллий иқтисодиётни ривожланишида иқтисослашув жараёни амал қилишининг назарий асослари. Иқтисодиёт ва таълим. №1. 2020. 18-24 б.; Низамов А. Б. Экономический механизм восстановления эквивалентности обмена между сельскохозяйственными и промышленными отраслями (на примере Бухарской области Узбекистана). Автореферат на соис. уч. степ. к.э.н. – М.: 1993. – 17 с.; Yavmutov D.Sh. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish sharoitida mintaq iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). I.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 76 b.

iqtisodiy-matematik usullar orqali tahlillar, hamda prognozlash usullarini kiritish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“og‘ir” hududlarni “ilg‘or sanoat korxonasi” loyihalari hamda hudud drayverlariga asoslanib, oziq-ovqat, tekstil-to‘qimachilik, elektrotexnika, charm-poyabzal, zargarlik, mebelsozlik, qurilish materiallari, polimer-kimyo va mashinasozlik sanoat tarmoqlariga ixtisoslashtirgan holda rivojlantirish taklifi asoslangan;

hududlarni barqaror rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda kichik va o‘rta biznesni “CSV” va “CSR”, yirik va strategik korxonalarni “ESG” va “RBC”, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda “ESG” va “CSV”, davlat va xususiy sheriklikni rivojlantirishda “SDG” tamoyillariga ustuvorlik bergan holda foydalanish taklifi ko‘rsatilgan;

“Made in Uzbekistan” yorlig‘i ostida milliy sanoat ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini global qo‘shilgan qiymat zanjiriga integratsiyalashuvining samarali yondashuvi asoslangan;

O‘rta muddatli istiqbolda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasi asosida amalga oshirishning samaradorligi bo‘yicha bazaviy, pessimistik va optimistik ssenariylarga asoslangan 2026–2030-yillar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

barqaror rivojlanishga asoslangan mintaqaviy sanoatlashuv strategiyasining ilmiy-konseptual jihatlarini chuqur tahlil qilinib, tegishli ilmiy-nazariy yondashuv va qarashlar guruhlangan;

mintaqalarni sanoatlashtirishning barqaror rivojlanish strategiyasi orqali amalga oshirishning usullari turli mezonlar asosida qiyosiy taqqoslanib, ulardan ijodiy foydalanish ustuvorliklari aniqlangan;

barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishning ilg‘or xorij amaliyotini qiyosiy taqqoslash asosida undan mamlakatimizda ijodiy foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan;

Yangi O‘zbekistonda mintaqaviy sanoatlashuvni tartibga solish va rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

respublika hududlari sanoatlashuvini barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish tendensiyalari baholangan;

O‘zbekistonning barqaror rivojlanish indeksi va uning tarkibiy komponentlari holatiga baho berilgan;

barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlari belgilangan;

o‘rta muddatli istiqbolda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muqobil prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotni bajarish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar,

sanoat va savdo vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki kabi milliy va global tashkilotlarning rasmiy ma’lumotlari, jumladan, tadqiqotda foydalanilgan usul va ilmiy yondashuvlarning belgilangan maqsadga muvofiqligi, shuningdek, tegishli ilmiy asosga egaligi, ishdagi keltirib o‘tilgan ilmiy xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotni o‘tkazish orqali ishlab chiqilgan ilmiy taklif, hamda amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasi asosida amalga oshirish borasidagi davlat dasturlari samaradorligini ta’minlash va ularni amalga oshirishning ta’sirchan mexanizmini shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida muhim manba sifatida foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undan olingan ilmiy va amaliy natijalar, jumladan, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha milliy va hududiy amaliyotni xalqaro standartlar tizimiga integratsiyalash, shuningdek, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Makroiqtisodiyot”, “Sanoat iqtisodiyoti”, “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish” kabi oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan fanlarning ishchi-o‘quv dasturlarini takomillashtirish, hamda, talabalarga tegishli fanlar kesimida ta’lim berishda ijodiy foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqaviy sanoatlashuv darajasini kuchaytirishda rivojlanishning barqaror strategiyalaridan ijodiy foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflardan:

“Og‘ir” hududlarni “ilg‘or sanoat korxonasi” loyihalari hamda hudud drayverlariga asoslanib, oziq-ovqat, tekstil-to‘qimachilik, elektrotexnika, charm-poyabzal, zargarlik, mebelsozlik, qurilish materiallari, polimer-kimyo va mashinasozlik sanoat tarmoqlariga ixtisoslashtirgan holda rivojlantirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-dekabrda 684-son qarorining 1-ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 26-iyundagi 03-03/1-03/3-6330-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi asosida respublika hududlari kesimida tadbirkorlik subyektlariga ochiq tanlov asosida taklif qilinadigan yirik sanoat loyihalarining taqsimotini amalga oshirishga erishilgan.

Hududlarni barqaror rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda kichik va o‘rta biznesni “CSV” va “CSR”, yirik va strategik korxonalarni “ESG” va “RBC”, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda “ESG” va “CSV”, davlat va xususiy sheriklikni rivojlantirishda “SDG” tamoyillariga ustuvorlik bergan holda foydalanish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga

o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 3-ilovasi 67-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 26-iyundagi 03-03/1-03/3-6330-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi orqali respublika viloyatlari sanoatlashuvini amalga oshirishdagi davlat siyosati va qonuniy tartiblar hamda ekologik standartlar bilan bog'liq biznes strategiyalarini shakllantirishga erishilgan.

"Made in Uzbekistan" yorlig'i ostida milliy sanoat ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini global qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyalashuvining samarali yondashuvi asoslangan taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-sonli "Sanoat sohasida xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 26-iyundagi 03-03-03/1-03/3-6330-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish doirasida sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda "Made in Uzbekistan" yorlig'i ostida xalqaro brendlar bilan integratsion munosabatlarga kirishishni jadallashuviga xizmat qilgan.

O'rta muddatli istiqbolida mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasi asosida amalga oshirishning samaradorligi bo'yicha bazaviy, pessimistik va optimistik ssenariylarga asoslangan 2026–2030-yillar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi 47–48-maqсадlarning samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 26-iyundagi 03-03/1-03/3-6330-sonli ma'lumotnomasi). Taklifni amaliyotga joriy etish asosida mamlakat hududlarining sanoatni rivojlantirish salohiyatidan, ularning nisbiy ustunliklaridan kelib chiqqan holda respublika viloyatlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi salohiyatidan kelib chiqib, ularning ixtisoslashuv jarayonlarini kuchaytirishga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 141 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar

rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvning ilmiy-konseptual asoslari”** deb nomlanib, bobda barqaror rivojlanish strategiyasining mazmuni, uning tarkibiy tuzilishi va zarurati asoslangan, mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish usullari tahlil qilinib, jahon amaliyotida shakllangan modellar qiyoslanib, undan mamlakatimizda ijodiy foydalanish imkoniyatlarining rivojlanishiga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiyot fanida “barqaror rivojlanish” bo‘yicha tadqiqotlarni nazariy asoslariga ko‘ra, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik nazariy yondashuvlarga ajratish orqali turli guruhlariga bo‘lish mumkin. . Har bir guruh g‘oyalari mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda tavsiflanadi:

barqaror rivojlanishda ijtimoiy yondashuvga asoslangan nazariyalar – ushbu turdagi ilmiy nuqtai nazar jamiyatdagi qashshoqlik darajasini pasaytirish va aholi farovonligi ko‘rsatkichlarini, shu jumladan hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan.

barqaror rivojlanishda iqtisodiy yondashuvga asoslangan nazariyalar – bu turdagi ilmiy qarashlar asosan iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, barqaror rivojlanish tendensiyalariga erishish yo‘nalishlariga qaratilgan. Mazkur yo‘nalishdagi zamonaviy iqtisodiy qarashlarda barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida innovatsiya va raqamli texnologiyalarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda;

barqaror rivojlanishda ekologik yondashuvga asoslangan nazariyalar – bu turdagi ilmiy qarashlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarning yomonlashuvini oldini olish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, flora va fauna dunyosidagi turli tumanlikni saqlashga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga aniqlik kiritish maqsadida barqaror rivojlanishning tarkibiy nazariyalari o‘rtasidagi qiyosiy tahlili amalga oshirildi va uning natijalari 1-ilovada keltirib o‘tildi. Qiyosiy tahlilni amalga oshirishda ilmiy qarashlardagi asosiy g‘oya, uning tamoyillari, amaliyotda qo‘llanilishi, kuchli taraflari va kamchiliklari kabi mezonlarga asoslanildi. Tahlillarga ko‘ra, barqaror rivojlanishning tarkibiy nazariyalari uchun quyidagi xususiyatlar xos ekanligi aniqlandi:

ijtimoiy nazariyalar – jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash, ijtimoiy kapitalni (yoki inson kapitalini) rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda iqtisodiy samaradorlikka nisbatan kamroq e’tibor qaratilgan;

iqtisodiy nazariyalar – asosiy ustuvorlik iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy va ekologik omillar ikkilamchi ahamiyatga ega;

ekologik nazariyalar – asosiy ustuvorlik ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi tarkibiy ilmiy qarashlarining qiyosiy tahlili⁶

Nazariya	Asosiy g'oya	Tamoyillar	Amaliy qo'llanilishi	Kuchli tomonlari	Kamchiliklari
Maltus nazariyasi	Tabiiy resurslar cheklangan, aholi o'sishi ekologik inqirozga olib keladi	Resurslar kamaygani sayin aholi o'sishini cheklash kerak	Demografik siyosat, aholi o'sishini tartibga solish	Atrof-muhit va demografik muammolarga e'tibor qaratadi	Innovatsiya va texnologiya taraqqiyotini inobatga olmaydi
Ekologik iz nazariyasi	Inson faoliyatining tabiatga ta'siri haddan tashqari katta bo'lmazligi kerak	Atrof-muhit muhofazasi, resurs tejamkorligi	Karbon izini kamaytirish strategiyalari, yashil texnologiyalar	Ekologik barqarorlikni ta'minlaydi	Iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi cheklovlar bor
Yashil iqtisodiyot nazariyasi	Iqtisodiy rivojlanish atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'un bo'lishi kerak	Barqaror iqtisodiy o'sish, ekologik mas'uliyat	Yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari	Ekologiya va iqtisodiy rivojlanishni birlashtiradi	Ishlab chiqarish xarajatlari yuqori
Neoklassik rivojlanish nazariyasi	Bozor iqtisodiyoti o'z-o'zidan barqarorlikka erishadi	Raqobat, erkin bozor, samaradorlik	Davlat aralashuvisiz iqtisodiy rivojlanish strategiyalari	Innovatsiya va investitsiyani rag'batlantiradi	Tabiat va ijtimoiy omillar e'tiborga olinmaydi
Ijtimoiy kapital nazariyasi	Jamiyatdagi hamkorlik va ishonch rivojlanishning asosiy omillaridan biri	Jamoaviy faollik, ijtimoiy tarmoqlar	Jamoatchilik ishtirokini oshirish, ta'lim tizimi rivoji	Jamiyatning ijtimoiy birdamligini mustahkamlaydi	Iqtisodiy va ekologik jihatlar to'liq qamrab olinmagan
Har bir avlod uchun tenglik nazariyasi	Hozirgi rivojlanish kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmasligi kerak	Umuminsoniy javobgarlik, uzoq muddatli rejalashtirish	Davlat siyosatlarida barqaror rivojlanish maqsadlarini joriy qilish	Kelajak avlod huquqlarini himoya qiladi	Iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan sust
Keynsianizm	Davlat iqtisodiyotga faol aralashishi kerak	Davlat sarmoyasi, bozorni tartibga solish	Iqtisodiy inqirozlarni yumshatish, inflyatsiyaga qarshi kurash	Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi	Davlat qarzining o'sishiga sabab bo'lishi mumkin
Qayta tiklanadigan resurslar nazariyasi	Barqaror rivojlanish uchun resurslar samarali foydalanilishi va qayta tiklanishi kerak	Resurs tejamkorligi, tiklanish mexanizmi	Chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejash texnologiyalari	Tabiiy resurslarning barqaror saqlanishini ta'minlaydi	Ayrim sohalarda amalga oshirish qiyin va qimmat

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, mintaqaviy sanoatlashuv iqtisodiy kategoriyasiga quyidagicha mualliflik yondashuvini ishlab chiqishga erishildi: "Mintaqaviy sanoatlashuv – bu muayyan bir hudud doirasida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish zanjirini shakllantirishda mahalliy resurslardan innovatsion texnologiyalar

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

asosida samarali foydalanish jarayoni hisoblanadi”. Ushbu tarifni ishlab chiqishda jarayonli yondashuv asosida sanoat sohasida innovatsion faollikka ustuvorlik qaratish asosida yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash imkoniyatlari inobaatga olinganligi bilan xarakterlanadi.

2-jadval

Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuv usullarining izohlanishi⁷

Sanoatlashuv usullari	Maqsadi	Izohlanishi
Innovatsion sanoatlashuv	Yangi texnologiya va innovatsiya-larga asoslangan sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish	“Sanoat – 4.0” va “Sanoat – 5.0” konsepsiyalari asosida innovatsion texnologiyalar bilan qurollangan va raqamli transformatsiyalashgan mintaqaviy sanoat-lashuvni anglatadi
Klasterli sanoatlashuv	Mintaqaviy sanoat klasterlarini rivojlantirish	Ma’lum bir hududning resurs va infratuzilma salohiyatidan turli tarmoqlar va korxonalar o’rtasidagi o’zaro iqtisodiy manfaatdorlikka asoslangan, mahsulot ishlab chiqarish zanjirini o’zlashtirish hisobiga chuqur ixtisoslashgan mintaqaviy sanoatlashuvni anglatadi
Ekologik sanoatlashuv	Ekologik standartlarga asoslangan barqaror sanoatni shakllantirish	“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga muvofiq, ekologik barqarorlikni ta’minlovchi toza texnologiyalarga asoslangan, chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan mintaqaviy sanoatlashuvni ang-latadi

Shuningdek, barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish usullarini tahlil qilish asosida ularni 2-jadvalda keltirib o’tilgan tartibda izohlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mintaqaviy sanoatlashuvning mohiyatini tushuntirish maqsadida ishlab chiqilgan yondashuvlar zamonaviy bozor iqtisodiyotida mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlari uchun xos bo’lgan, texnik-texnologik transferlar, innovatsion faollik, raqamli transformatsiyalashuv asosida barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini o’zida aks ettiradi.

3-jadval

Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish usullari qiyosiy tahlili⁸

Qiyosiy tahlil mezonlari	Mintaqaviy sanoatlashuv usullari		
	Innovatsion sanoatlashuv	Ekologik sanoatlashuv	Klasterli sanoatlashuv
Ustuvorlik	Yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish	Ekologik barqaror sanoatni shakllantirish	Mintaqaviy sanoat klasterlarini rivojlantirish
Ustunliklari	– ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi; – yangi mahsulotlar va bozorlarni ochadi; – texnologik raqobatbardoshlikni kuchaytiradi	– tabiatga zarar yetkazmaydi; – chiqindilar kamayishi va resurslardan samarali foydalanish	– korxonalar o’rtasida kooperatsiyani kuchaytiradi; – mintaqaviy iqtisodiyotni bir butun tizim sifatida rivojlantiradi


⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

Kamchiliklari	– katta sarmoya talab qiladi; – yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj seziladi	– ekologik texnologiyalar qimmat; – barqaror rentabellikka erishish qiyin	– hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik kuchli bo‘lishi kerak; – raqobatsizlik muammosi tug‘ilishi mumkin
Qo‘llanish sohalari	Raqamli iqtisodiyot, yuqori texnologiyali sanoat, sun‘iy intellekt	Qayta tiklanuvchi energiya, “yashil” sanoat, chiqindilarni qayta ishlash	Toshkent avtomobil klasteri, tekstil va agrosanoat klasterlari
Ijtimoiy ta’siri	Yangi ish o‘rinlari yaratadi, malakali kadrlarga talab oshadi	Aholi salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi	Mintaqaviy iqtisodiy uyg‘unlikni ta’minlaydi

Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish usullarini qiyosiy tahlil qilish (3-jadvalga qarang) asosida, ularning har biri muayyan hududning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xususiyatlaridan kelib chiqib, qo‘llanilishi maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Tahlillarga ko‘ra, innovatsion sanoatlashuv usulida yuqori texnologiyalarni joriy etishga ustuvorlik qaratilgan bo‘lsa, ekologik sanoatlashuvda – atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga, klasterli sanoatlashuvda esa, mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan ichki hamkorlik aloqalarini kuchaytirish orqali samarali foydalanishga erishiladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish usullaridan amaliyotda foydalanish xususiyatlariga ko‘ra, ushbu usullar o‘zaro bir-birini to‘ldirib, bir vaqtning o‘ziga bir nechta usullardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘rganishlarga ko‘ra, bugungi kunda jahon xo‘jaligida mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyalari asosida amalga oshirishning innovatsion, eko-sanoatlashtirish, klasterli sanoatlashuv, agrosanoat hamda raqamli sanoatlashtirish modellari (1-rasmga qarang) o‘zaro farqlanib, har bir model mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari ustuvorliklari jihatidan o‘zaro farqlanadi.



1-rasm. Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqani sanoatlashtirish modellari⁹

Demak, mintaqalarda sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishning zamonaviy tendensiyalari va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish asosida

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

ushbu jarayonlarini amalga oshirish modellarining qiyosiy tahlilini (4-jadvalga qarang) o'tkazish natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

– innovatsion sanoatlashtirish modeli yuqori investitsiya talab qilishiga qaramay, iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlarini keskin oshiradi;

– eko-sanoatlashtirish modelini amalga oshirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birgalikda, investitsion qaytinga erishishda uzoq muddat davr talab qilinadi;

– klasterli sanoatlashtirish modeli bo'lsa sanoatda ilm-fan-ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro integratsion munosabatlarni chuqurlashuvini ta'minlash imkonini berib, investitsion talab hajmi o'rta darajadali bilan xarakterlanadi;

– agrosanoatlashtirish modeli qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, ammo ushbu modelni amalga oshirishda past darajadagi rentabellikka erishiladi;

– raqamli sanoatlashtirish modelida sanoat ishlab chiqarishini avtomatizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlarida sun'iy intellekt (AI) bilan internet ashyolari (IT) dan keng foydalanishga erishilib, ish o'rinlari tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lib, mavjud ish o'rinlari qisqaradi;

4-jadval

Mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyalari modellarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlili¹⁰

Kriteriyalar	Innovatsion sanoatlashtirish	Eko-sanoatlashtirish	Klasterli sanoatlashtirish	Agrosanoat modeli	Raqamli sanoatlashtirish
Asosiy maqsad	Texnologik innovatsiya	Ekologik barqarorlik	Sanoat va ilm-fan integratsiyasi	Qishloq xo'jaligi va sanoatni bog'lash	Avtomatizatsiya va raqamli iqtisodiyot
Investitsiya ehtiyoji	Yuqori	O'rta-yuqori	O'rtacha	O'rtacha	Yuqori
Samaradorlik darajasi	Yuqori	O'rtacha	Yuqori	O'rtacha	Yuqori
Ish o'rinlari yaratish	O'rtacha	O'rtacha	Yuqori	Yuqori	Past
Ekologik ta'sir	O'rtacha	Past (ekologik xavfsiz)	O'rtacha	O'rtacha	Past
Talab qilinadigan infratuzilma	Ilmiy-texnologik markazlar	Yashil energiya, ekotexnologiyalar	Klasterlarni qo'llab-quvvatlash tizimi	Agrosanoat kompleksi	Internet va raqamli platforma
Rivojlanish uchun muhim omillar	Tadqiqot va innovatsiya	Davlat ko'magi, qonunchilik	Ishlab chiqaruvchilar hamkorligi	Qishloq xo'jaligi salohiyati	Sanoat 4.0 texnologiyalari
Dunyodagi namunaviy mamlakatlar	AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya	Germaniya, Shvetsiya, Niderlandiya	Italiya, Xitoy, Fransiya	Braziliya, Niderlandiya	Germaniya, Yaponiya, AQSh

– mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, mamlakatlar o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

va ekologik xususiyatlaridan kelib chiqib, yuqorida keltirib o‘tilgan modellar xususiyatlarini o‘zaro gibrillashtirilgan holatdagi milliy strategik sanoatlashtirish dasturlarini amalga oshirib kelmoqda.

Tadqiqotning **“O‘zbekistonda mintaqaviy sanoatlashuv barqarorligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni tartibga solish va uni amalga oshirish xususiyatlari aniqlangan, rivojlanish tendensiyalari baholangan, mamlakatning barqaror rivojlanish indeksi hamda uning tarkibiy komponentlari holati hisoblangan.

O‘rganishlarga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlari davrida respublikada mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, respublika hududlari kesimida investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va sanoat mahsulotlari eksporti salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan davlat dasturlari (5-jadvalga qarang) quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini berayotganligi aniqlandi:

birinchidan, mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish hisobiga respublika hududlarida yangi sanoat korxonalari ochilishi mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish hisobiga aholi uchun mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirmoqda;

ikkinchidan, mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarining ma’lum bir hudud doirasida cheklanib qolmasligi hisobiga respublikaning barcha viloyatlari iqtisodiy rivojlanishi ko‘rsatkichlarini o‘zaro mutanosiblikda olib borilishi hududlardagi disproporsiyalarni kamaytirgan holda iqtisodiy tenglikni ta’minlash imkonini bermoqda;

5-jadval

O‘zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari¹¹

Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi
Soliq imtiyozlari	Yangi sanoat korxonalari uchun 5–10 yillik imtiyozlar
Davlat subsidiyalari	Infratuzilma va texnologiyalar uchun moliyaviy ko‘mak
Kredit va moliyalashtirish	Tijorat banklari orqali arzon kreditlar
Erkin iqtisodiy zonalar	Sarmoyadorlar uchun maxsus imtiyozlar va bojxona yengilliklari
Logistika infratuzilmasini yaxshilash	Yangi avtomagistral va temir yo‘l loyihalari

uchinchidan, mintaqaviy sanoat korxonalarining xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlari ortishi hisobiga sanoat sohasining eksport salohiyati oshib bormoqda. Demak, mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish yo‘nalishlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, amaldagi qonunchilik asosida mazkur yo‘nalishdagi islohotlarni tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar tahlili ushbu sohaga oid bo‘lgan omillarni ajratib olish imkonini berdi. Unga ko‘ra, mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish jarayonlari tabiiy resurs, demografik,

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

transport va logistika, investitsion muhit hamda sohadagi davlat siyosati kabi omillarga bog‘liq, degan xulosaga keldik. Aniqlangan omillar mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni shakllantirish omillari sifatida xizmat qilib, 6-jadvalda keltirib o‘tilgan qiyosiy tahlilni o‘tkazish imkonini berdi.

6-jadval

O‘zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni shakllantirish omillari bo‘yicha tahlil¹²

Omillar	Ta’sir sohasi	Misollar
Tabiiy resurslar	Ishlab chiqarish sohalari joylashuvi	Navoiy – uran va oltin, Buxoro – neft va gaz
Demografik omillar	Ishchi kuchi mavjudligi	Farg‘ona vodiysi – mehnat resurslarining yuqori konsentratsiyasi
Transport va logistika	Sanoat klasterlarining samaradorligi	Toshkent – temir yo‘l va avtomagistral markazi
Investitsion muhit	Xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish	Jizzax va Navoiy erkin iqtisodiy zonalar
Davlat siyosati	Imtiyozlar va rag‘batlantirish choralari	Soliq imtiyozlari va kredit subsidiyalari

Umuman olganda, mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish jarayonlari uchun xos bo‘lgan xususiyatlari tahlili respublika amaliyotida klasterli yondashuvdan foydalanish hisobiga sanoat korxonalarini bir joyga to‘plab, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashga ustuvorlik qaratilayotganligini ko‘rsatdi (7-jadvalga qarang). Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar quyidagi tendensiyalarga erishish imkonini bermogda:

7-jadval

O‘zbekistonda mintaqaviy sanoatlashuvni klasterli yondashuv asosida tashkil etish yo‘nalishlari va tarmoq tarkibi¹³

Sanoat klasteri	Joylashuvi	Asosiy yo‘nalishi
Avtomobilsozlik	Andijon (ASAKA)	Avtomobil ishlab chiqarish, ehtiyot qismlar
Tekstil va yengil sanoat	Farg‘ona, Namangan, Samarqand	Paxta tolasi qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish
Agrosanoat klasteri	Samarqand, Surxondaryo	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qayta ishlash
Neft-gaz klasteri	Buxoro, Qashqadaryo	Gaz-kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish
Elektronika va elektrotexnika	Toshkent, Navoiy	Maishiy texnika, sanoat elektr jihozlari

– mahsulot ishlab chiqarish zanjirini mustahkamlash – bunda xomashyodan iste’molga tayyor mahsulotgacha bo‘lgan ishlab chiqarish zanjiri bosqichlarini o‘zlashtirish imkoniyatini yaratilishi nazarda tutiladi;

¹² Muallif tomonidan tuzilgan.

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

- mahalliy sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish – bunda sanoat korxonalarining mahalliy hamda xalqaro bozorlardagi milliy va global raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini yaxshilanishiga erishilmoqda;
- investitsion jozibadorlikni oshirish – xorijiy investorlarni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy-ijtimoiy muhit yaratilmoqda.

8-jadval

O‘zbekistonda mintaqaviy sanoatlashuvning hududlar kesimidagi qiyosiy tahlili¹⁴

Hudud	Asosiy sanoat tarmoqlari	Afzalliklar	Muammolar
Toshkent viloyati	Mashinasozlik, farmasevtika, qurilish materiallari	Katta bozor, infratuzilma	Yuqori ish haqi, ekologik muammolar
Navoiy viloyati	Metallurgiya, kimyo sanoati	Erkin iqtisodiy zona, tabiiy resurslar	Kam mehnat resurslari, suv taqchilligi
Farg‘ona vodiysi	Avtomobilsozlik, yengil sanoat, elektronika	Katta mehnat resurslari, logistika qulay	Ekologik muammolar, yer taqchilligi
Samarqand-Jizzax	Agrosanoat, qurilish materiallari	Qishloq xo‘jaligi uchun qulay iqlim	Korxonalar texnologiya jihatdan yetarli emas
Buxoro-Qashqadaryo	Neft-gaz sanoati, gaz-kimyo	Katta tabiiy resurslar	Ekologik muammolar, qayta ishlash darajasi past
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi	Yer resurslari katta	Orol dengizi ta’siri, infratuzilma zaif

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil asosida mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishda agrosanoat, innovatsion va klasterli sanoatlashtirish modellari uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan o‘zaro mutanosiblikda foydalanilayotganligi bilan birgalikda, bugungi kunda eko hamda raqamli sanoatlashtirish modellari xususiyatlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinayotganligi aniqlandi. Jumladan, keyingi yillarda mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarining samaradorligini ta’minlashda quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratish kerak, deb hisoblaymiz:

- hududlarning sanoatlashuv bo‘yicha ixtisoslashuvliklarini aniqlashtirish – bunda respublikaning har bir viloyati kesimida ularning tabiiy resurs hamda ishchi kuchi salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga erishiladi;

- erkin iqtisodiy zonalar sonini ko‘paytirish – bu orqali mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarining investitsion resurslarga bo‘lgan talabini hududlar investitsion jozibadorligini oshirish hisobiga samarali qondirishga erishiladi;


- sanoat ishlab chiqarishi raqamlashtirish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish xalqaro darajadagi ekologik standartlar tizimiga mos keladigan sanoat ishlab chiqarishini raqamli transformatsiyalashuv hisobiga yuqori samaradorligini ta’minlashga erishiladi;

- transport va logistika tizimini yaxshilash – bu orqali sanoat tarmoqlarining ichki hamda tashqi bozorlar bilan bog‘lanish imkoniyatlarini kuchaytirishga erishiladi.

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

Shu bilan birgalikda, “Barqaror rivojlanish – 2030” maqsadlari bo‘yicha mamlakatlarning barqaror rivojlanish indekslarini hisoblashda bugungi kunga qadar tashkilot ekspertlari tomonidan uni hisoblash amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiyot muntazam ravishda takomillashtirilib, bugungi kunda BMTning 2024-yilning fevral-mart oylaridagi 55-sessiyasida qabul qilingan uslubiyotga asoslangan holda, indeksni hisoblashda 231 tadan 248 tagacha bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi¹⁵. Mamlakatimiz amaliyotida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlar bazasida mavjud ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan holda milliy darajada qabul qilingan barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslanib, BMTning barqaror rivojlanish indeksini hisoblash amaliyotidan foydalangan holda, respublika bo‘yicha barqarorlik indeksini hisoblashni lozim topdik. Bunda Xalqaro tashkilot tomonidan 2017-yilda ishlab chiqilib, bugungi kunga qadar takomillashtirilib kelinayotgan baholash uslubiyotlaridan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish mumkin bo‘lganlarini tanlab olamiz.

Umumiy holda, mamlakatda barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha amalga oshirilgan indekslar hisob-kitoblari tahlili asosida hukumat tomonidan qabul qilingan maqsadlarga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar natijasida global maqsadlarga erishish darajasi baholash imkoniyatiga ega bo‘lindi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, milliy darajada barqaror rivojlanish bo‘yicha belgilangan maqsadlarning global maqsadlar tarkibiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha maqsadlarga erishish holati mamlakatda Yangi O‘zbekiston sharoitida 29,9 foizga nisbatan yomonlashgani aniqlandi. Jumladan, respublika bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 38,8 foiz holatda global maqsadlarning tarkibiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha belgilangan xalqaro me’yorlarga deyarli erishish holatiga yaqinlashgan. Maqsadlarga erishish darajasi bugungi kunda ularning jami tarkibiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisoblanganda, 31,3 foizni tashkil etmoqda (2-rasmga qarang).




2-rasm. O‘zbekistonda “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga erishish holati, 2024-yilgacha bo‘lgan davr uchun, global maqsadlarining jami tarkibiy ko‘rsatkichlariga nisbatan foizda¹⁶

Shu o‘rinda aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatda barqaror rivojlanish maqsadlarining tarkibiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish

¹⁵ Global indicator framework for the Sustainable Development Goals and targets of the 2030 Agenda for Sustainable Development. (A/RES/71/313; E/CN.3/2018/2; E/CN.3/2019/2; E/CN.3/2020/2; E/CN.3/2021/2; E/CN.3/2022/2; E/CN.3/2023/2; E/CN.3/2024/4.) URL: <https://unstats.un.org/sdgs/indicators/Global-Indicator-Framework-after-2024-refinement-English.pdf>

¹⁶ Muallif tomonidan hisoblangan.

uchun kerak bo'ladigan statistik ma'lumotlarni to'liq jamlash imkoniyati bo'lmadi. Shu bilan birgalikda, ayrim statistik ma'lumotlarni hisoblash yoki taqdim etish amaliyoti xalqaro statistik ma'lumotlarni jamlash va ularni taqdim etish bo'yicha me'yorlarga javob bermaydi. Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlarining jami tarkibiy komponentlarini hisoblash imkoniyatini chekladi.



3-rasm. O'zbekistonning barqaror rivojlanish indeksi¹⁷


Milliy darajada ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish maqsadlari va uning tarkibiy ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalarga asoslangan holda mamlakatning barqaror rivojlanish darajasi bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, 2000–2023-yillarda respublikada barqaror rivojlanish indeksini 20,4 foizga yaxshilanib, 57,51 dan 69,24 koeffitsiyentga yetganligi aniqlandi (3-rasmga qarang). Bu esa umumiy holda mamlakatda barqaror rivojlanishga erishilayotganligini ko'rsatadi. Ammo ishlab chiqilgan milliy barqaror rivojlanish maqsadlari va uning tarkibiy komponentlari bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish zaruriyati mavjud hisoblanadi. Bu orqali barqaror rivojlanish indeksini yanada yaxshilashga erishiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari”** deb nomlangan bo'lib, bobda mintaqaviy sanoatlashuvni barqarorligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari samaradorligini oshirish, jumladan, ushbu jarayonlarni xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlari aniqlangan. 2025–2030-yillarda mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatda iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish, faol tadbirkorlik muhitini shakllantirish, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlariga ustuvorlik qaratilishi “O'zbekiston – 2030” strategiyasidagi “yirik korxonalar tomonidan import o'rini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish, har bir tumanda

¹⁷ Muallif tomonidan hisoblangan.

zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish”¹⁸ kabi ustuvor vazifalarda o‘z aksini topganligida namoyon bo‘ladi.



4-rasm. “Ilg‘or sanoat korxonasi” loyihasi ochiq tanlovini amalga oshirish mezonlari¹⁹

Fikrimizcha, keyingi yillarda respublika bo‘yicha mahalliy sanoat korxonalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish zanjirini to‘liq qamrab olgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar asosida bugungi kunda iste‘mol bozorida talab yuqori bo‘lgan hamda qo‘shimcha rivojlanish salohiyatiga ega sanoatning elektrotexnika, oziq-ovqat, qurilish materiallari, kimyo-polimer, to‘qimachilik, charm-poyabzal, mashinasozlik, mebelsozlik, zargarlik kabi sohalarida ochiq tanlov orqali “Ilg‘or sanoat korxonasi” loyihalarini tanlab olish va ularni moliyalashtirish amaliyotiga o‘tilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Taklif etilayotgan “Ilg‘or sanoat korxonasi” loyihalari tanlovini amalga oshirish mezonlari quyidagi beshta talablarga (4-rasmga qarang) muvofiq amalga oshirilishi lozim:

birinchi, mehnat bozorida qo‘shimcha yangi ish o‘rinlari yaratish – ishlab chiqilgan loyiha hisobiga kamida 100 ta qo‘shimcha yangi ish o‘rinlari yaratilishi;

ikkinchi, import o‘rnini bosish – bunda loyiha taqdim etilgan sanoat korxonasi tomonidan ishlab chiqariligi rejalashtirilayotgan mahsulotning ichki bozorda import hajmidagi ulushi 50,0 foizdan kam bo‘lmasligi maqsadga muvofiq;

uchinchi, ilg‘or texnik-texnologik qurollanganlik – mahsulot ishlab chiqarishining yangi avlod texnika-texnologiyalari bilan qurollanganligi;

to‘rtinchi, “og‘ir” hududlarda sanoat ishlab chiqarishi ixtisoslashuvini kuchaytirish – bunda sanoatlashish darajasi bo‘yicha respublikaning boshqa hududlariga nisbatan ortda qolayotgan viloyatlari tadbirkorlari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarga ustuvorlik qaratish nazarda tutiladi;

beshinch, milliy brendning ustuvorligi – bunda jahon bozorida yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan xalqaro brend korxonalar bilan milliy rezidentlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish asosida milliy brendning xalqaro bozoridagi o‘rnini oshirishga qaratilgan dasturlar samaradorligini oshirish nazarda tutiladi.

Shuningdek, “Ilg‘or sanoat korxonasi” loyihasining ochiq tanlovi natijalari asosida tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan loyihalarni moliyalashtirishda davlatning

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023 <https://lex.uz/ru/docs/6600413>


¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

maqsadli budjetdan tashqari fondlari, jumladan, Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan imtiyozli kreditlar ajratish maqsadga muvofiq. Bunda maqsadli fond tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kredit summasi loyiha umumiy qiymatining 25,0 foizidan ortmagan holda, kredit ajratish muddatining 30,0 foiziga teng bo'lgan imtiyozli davr bilan (masalan, kredit muddati 10 yilni tashkil etsa, bundan 3 yili imtiyozli davr hisoblanadi) taqdim etilishi zarur bo'ladi. Shuningdek, ajratilayotgan kreditning absolyut summasi 10,0 mln. AQSh dollardan ortmasligi kerak. Shu bilan birgalikda, maxsus fond tomonidan bu turdagi loyihalarni kreditlar amaliyoti milliy va xorijiy valyutalarda quyidagi foizlar asosida taqdim etilishi maqsadga muvofiq:

- milliy valyutada kreditlashning jami muddatining 30,0 foiziga teng bo'lgan imtiyozli davr bilan yillik 10,0 foiz stavkada. Bunda tijorat banklarining kreditlar bo'yicha marjasi 4,0 foizga teng bo'ladi;

- milliy valyutada kreditlashning jami muddatining 30,0 foiziga teng bo'lgan imtiyozli davr bilan yillik 4,0 foiz stavkada. Bunda tijorat banklarining kreditlar bo'yicha marjasi 2,0 foizga teng bo'ladi;

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan takliflar asosida mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirishda "Ilg'or sanoat korxonasi" loyihalari ochiq tanloviga asoslanilishi asosida respublikaning "og'ir" hududlarining sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligi ortadi. Shu bilan birgalikda, mamlakat sanoat tarmoqlarini rivojlanishi, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlariga aholining mavjud talablaridan kelib chiqqan holda "Ilg'or sanoat korxonasi" loyihalari ochiq tanlovini o'tkazishning dastlabki yillarida oziq-ovqat, tekstil-to'qimachilik, elektrotexnika, charm-poyabzal, zargarlik, mebelsozlik, qurilish materiallari, polimer-kimyo va mashinasozlik kabi sanoat tarmoqlarida o'tkazilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (5-rasmga qarang).



5-rasm. Mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda "Ilg'or sanoat korxonasi" loyihalari ochiq tanlovi o'tkazilishi taklif etilayotgan sanoat tarmoqlari²⁰

Jumladan, mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirishda respublika hududlarini sanoat ishlab chiqarishiga ixtisoslashtirish bo'yicha amalga

²⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

oshirilayotgan davlat dasturlarini samaradorligini oshirish uchun imtiyozli kreditlash amaliyotini quyidagi yo‘nalishlarda joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:


– sanoat mahsulotini ishlab chiqarishini tashkil etish va uni kengaytirish uchun qo‘shimcha yoki yangi bino va inshootlarni sotib olish;

– yangi turdagi sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish uchun zamonaviy texnik va texnologiyalar sotib olish;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va mahsulot ishlab chiqarishning to‘liq zanjirini qamrab olish maqsadida innovatsion loyihlarni amaliyotga joriy etish.

Bunda maxsus “Sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni kreditlash” tizimini joriy etish kerak bo‘ladi. Taklif etilayotgan “Sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni kreditlash” tizimi byudjet va byudjetdan tashqari sanoatni rivojlantirish maqsadli fondlarining moliyaviy resurslaridan tijorat banklariga ajratiladigan moliyaviy resurslar hisobidan sanoat ishlab chiqarishini imtiyozli shartlar asosida 10 yil muddatga kreditlash amaliyotiga o‘tishni nazarda tutadi.

“Sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni kreditlash” tizimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini ixtisoslashtirish va ular faoliyatini rivojlantirish maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ajratiladigan kredit hajmi kredit olish uchun taqdim etilayotgan loyihaning umumiy qiymati 4,0 mln. dollardan yuqori bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun loyihaning 25,0 foizidan oshmasligi talab etiladi. Bunda milliy va xorijiy valyutada kreditlash amaliyoti quyidagi talablar asosida bo‘lishi maqsadga muvofiq (6-rasmga qarang):



6-rasm. “Sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni kreditlash” tizimining amal qilish mexanizmi²¹


²¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

– milliy valyutada – 3 yillik imtiyozli davr bilan yillik 12,0 foiz stavkada. Bunda tijorat banklarining kreditlar bo'yicha marjasi 5,0 foizga teng bo'ladi;

– xorijiy valyutada – 3 yillik imtiyozli davr bilan yillik 6,0 foiz stavkada. Bunda tijorat banklarining kreditlar bo'yicha marjasi 3,0 foizga teng bo'ladi.

Bundan tashqari, taklif etilayotgan “Sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni kreditlash” tizimi doirasida kichik iqtisodiy va sanoat zonalarida tashkil etilib, ijobiy natijalarga erishib kelayotgan korxonalar faoliyatini kengaytirish orqali mahsulot ishlab chiqarish zanjirini to'liq qamrab olish asosida ixtisoslashuv jarayonlarini jadallashtirish uchun sanoat korxonalariga xomashyo materiallarini xarid qilish uchun aylanma mablag'larni shakllantirish maqsadida 12 oygacha milliy valyutada yillik 10,0 foizdan, xorijiy valyutada esa yillik 4,0 foiz stavkada kredit yoki subordinar qarz ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatda “Sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni kreditlash” tizimini joriy etilishi mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish borasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish imkoniyatini kengaytirib, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishining to'liq zanjirini o'zlashtirilishini jadallashuvi hisobiga ixtisoslashuv jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



7-rasm. Kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlarini tashkil etish mexanizmi²²

²² Muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillarga asoslangan holda keyingi yillarda mamlakatimiz mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda kichik sanoat korxonalari o'rtasida integratsion munosabatlarni kuchaytirish asosida innovatsion yo'nalishdagi kichik sanoat kooperativlari faoliyatini tashkil etish orqali mahsulot ishlab chiqarishning to'liq zanjirini o'zlashtirishga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Taklif etilayotgan kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlarini tashkil etish mexanizmi 7-rasmda keltirib o'tildi.

Kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlari faoliyatini tashkil etishda quyidagi subyektlar ishtirok etadilar:

– *innovatsion markazlar* – so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan "Innovatsion rivojlanish strategiyasi"²³ doirasida respublikaning turli hududlarida innovatsion rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Bu turdagi markazlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ular kichik innovatsion ishlab chiqarish sanoati korxonalari kooperativlari innovatsion faolligini oshirish uchun xizmat ko'rsatishlari va ular talabiga mos keladigan innovatsion loyihalari, ilmiy-texnik ishlanmalarni ishlab chiqishlari kerak bo'ladi. Bu mahalliy sanoat korxonalari tomonidan innovatsiyalarni o'zlashtirish samaradorligini ortishi hisobiga yuqori daromadga erishish mumkin bo'ladi;

– *davlat va mahalliy boshqaruv organlari* – uch yoqlama faoliyat yuritgan holda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishi zarur bo'ladi. Bunda tashkil etilayotgan kichik innovatsion sanoat korxonalari kooperativlariga kichik sanoat korxonalarining integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlashi davlat va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining bir ko'rinishi bo'lsa, ikkinchi tarafdin innovatsion markazlar tomonidan tashkil etilgan kichik innovatsion sanoat kooperativlari uchun ishlab chiqilayotgan innovatsion loyiha hamda ilmiy-texnik ishlanmalar uchun rag'bat va preferensiyalar ajratishi kerak bo'ladi. Shu bilan birgalikda, hududiy kichik innovatsion sanoat korxonalari kooperativlari faoliyati davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan mutazam qo'llab quvvatlanishi kerak bo'ladi;

– *potensial investorlar* – kichik innovatsion sanoat kooperativlari faoliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug'ilgan taqdirda mahalliy va xorijiy investorlarning mablag'laridan keng foydalanish nazarda tutiladi. Investorlar uchun mamlakat kichik iqtisodiy va sanoat zonalarida yaratilgan imtiyozlar tijorat banklari moliyaviy xizmatlaridan foydalanishdan ko'ra arzonroq va samaraliroq hisoblanadi;

– *kichik ishlab chiqarish sanoati korxonalari* – kichik sanoat korxonalari taklif etilayotgan kichik innovatsion sanoat kooperativlarining muhim tarkibiy komponenti hisoblanib, mahsulot ishlab chiqarish zanjirini o'zlashtirish va ixtisoslashuv jarayonlarida muntazam ravishda bevosita ishtirok etuvchi xo'jalik subyektlari hisoblanadi.

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni, 06.07.2022 <https://lex.uz/docs/6102462>

Yuqorida keltirib o‘tilgan subyektlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli bo‘lgan kelishuv doirasida respublika hududlarida kichik innovatsion sanoat korxonalari kooperativlarini tashkil etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

9-jadval

Barqaror rivojlanish tamoyillarining qiyosiy tahlili²⁴

Tamoyillar	Ustunliklari	Kamchiliklari
CSR (korporativ ijtimoiy mas’uliyat)	– Ixtiyoriy ijtimoiy tashabbuslar; – Jamiyatda kompaniya imijini oshiradi	– Chuqur biznes strategiyasi emas; – Moliyaviy jihatdan samarasiz bo‘lishi mumkin
RBC (mas’uliyatli biznes faoliyati)	– Xalqaro standartlarga javob berish; – Investorlar va davlat tomonidan tan olinadi	– Regulyatsiya va talablar ko‘payishi; – Ba’zi kompaniyalar uchun xarajatlar yuqori
CSV (umumiy qiymat yaratish)	– Ijtimoiy muammolarni biznes modeliga aylantirish; – Uzoq muddatli daromad keltiradi	– Butun biznes modelini o‘zgartirish talab etiladi; – Hamma sohalar uchun mos emas
ESG (ekologik, ijtimoiy va davlat)	– Investorlar uchun muhim indikator; – Kompaniyaning xavflarni boshqarish imkoniyati	– ESG hisobotlarini tayyorlash xarajatli; – Barcha kompaniyalar uchun standart emas
SDG (barqaror rivojlanish maqsadlar)	– Davlat va biznesning hamkorlikda rivojlanishi; – Uzoq muddatli barqarorlik	– Barcha kompaniyalar uchun moslashuvchan emas; – Tasdiqlangan mezonlarning yetishmasligi

Shu bilan birgalikda, respublika viloyatlarining mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirilishini ta’minlashda barqaror rivojlanishning “CSR (Corporate Social Responsibility – korporativ ijtimoiy mas’uliyat)”, RBC (Responsible Business Conduct – mas’uliyatli biznes faoliyati)”, “CSV (Creating Shared Value – umumiy qiymat yaratish)”, “ESG (Environmental, Social and Governance – ekologik, ijtimoiy va davlat)” hamda “SDG (Sustainable Development Goals – barqaror rivojlanish maqsadlari)” tamoyillariga asoslanish talab etiladi. Bunda barqaror rivojlanishning har bir tamoyillari kesimida ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini (9-jadvalga qarang) inobatga olib, respublika hududlarida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Barqaror rivojlanish tamoyillarining biznes strategiyasi, investorlar, sanoatlashuvni amalga oshirishdagi davlat siyosati va qonuniy tartiblar, hamda ekologik bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarini tahlil qilish (10-jadvalga qarang) asosida har bir tamoyilni amalda qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagi tartibda bo‘lishi aniqlandi:

Shu bilan birgalikda, barqaror rivojlanish tamoyillarining biznes strategiyasi, investorlar, sanoatlashuvni amalga oshirishdagi davlat siyosati va qonuniy tartiblar hamda ekologik bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarini tahlil qilish (10-jadvalga qarang)

²⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

asosida har bir tamoyilni amalda qo'llashning ustuvor yo'nalishlari quyidagi tartibda bo'lishi aniqlandi:

– “CSR (Corporate Social Responsibility – korporativ ijtimoiy mas’uliyat)” tamoyili – sanoat korxonalari joylashgan hudud aholisi oldidagi ijtimoiy mas’uliyatlarini oshirishda;

– “RBC (Responsible Business Conduct – mas’uliyatli biznes faoliyati)” tamoyili – sanoatlashuvni rivojlantirish bo'yicha milliy va xalqaro standartlar tizimi bo'yicha o'rnatilgan talablarga mos keladigan hududlardagi sanoat ishlab chiqarishi faoliyatini tashkil etilishida;

10-jadval

Barqaror rivojlanish tamoyillarini amal qilish xususiyatlari tahlili²⁵

Tamoyillar	Korxonaning biznes strategiyasiga ta'siri	Investorlar uchun ahamiyati	Davlat siyosati va qonuniy tartibga solishdagi ahamiyati	Ekologik barqarorlik sohasidagi ahamiyati
CSR (korporativ ijtimoiy mas’uliyat)	Loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini oshirishda	Korxona imidjini yaxshilaydi, investorlar uchun muhim emas	Ixtiyoriy ahamiyatga ega	Xayriya va ijtimoiy tashabbuslar
RBC (mas’uliyatli biznes faoliyati)	Xalqaro standartlarga integratsiyani kuchaytirishda	Investorlar uchun ustuvor ahamiyatga ega	Davlat tomonidan tartibga solishda	Xalqaro darajadagi ekologik standartlarni joriy qilish
CSV (umumiy qiymat yaratish)	Biznes imkoniyatlari orqali ijtimoiy muammolarni hal etishda	Investorlar uchun kelajakdagi daromad manbai sifatida baholanadi	Ixtiyoriy ahamiyatga ega	Ekologik muammolarni biznes imkoniyatlari orqali hal etish
ESG (ekologik, ijtimoiy va davlat)	Risklarni boshqarish orqali barqarorlikni ta'minlashda	Investorlar uchun ustuvor ahamiyatga ega	Davlat tomonidan tartibga solishda	Aniq mezonlar orqali ekologik mas’uliyatni aniqlangan
SDG (barqaror rivojlanish maqsadlar)	Davlat va xususiy sheriklik mexanizmini ishlab chiqishda	Davlat va xalqaro hamkorlik uchun muhim	Davlat va xususiy sheriklikni rivojlantirishda	Global ekologik maqsadlarga erishishdagi hamkorlik

– “CSV (Creating Shared Value – umumiy qiymat yaratish)” tamoyili – mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish hisobiga hududda aholi uchun barqaror daromad manbaini shakllantirishda;

– “ESG (Environmental, Social and Governance – ekologik, ijtimoiy va davlat)” tamoyili – respublika viloyatlari kesimida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish bo'yicha investitsion jozibadorlikni oshirish hisobiga investorlarni keng jalb qilishda;

– “SDG (Sustainable Development Goals – barqaror rivojlanish maqsadlari)” tamoyili – davlat va xususiy sektor o'rtasida davlat-xususiy sheriklikning keng qamrovli mexanizmini shakllantirishda.

Demak, o'tkazilgan tahlillar yuqorida keltirilgan barqaror rivojlanish tamoyillarini quyidagi yo'nalishlarda qo'llash samarali bo'lishini ko'rsatdi:

²⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

birinchi, kichik va oʻrta biznesni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarda “CSV” va “CSR” tamoyillaridan;

ikkinchi, mamlakatning yirik va strategik ahamiyat kasb etuvchi sanoat korxonalarini qoʻllab-quvvatlashda “ESG” hamda “RBC” tamoyillaridan;

uchinchi, hududlarning investitsion jazibadorligini oshirishda “ESG” va “CSV” tamoyillaridan;

toʻrtinchi, “SDG” tamoyili asosida davlat va xususiy sheriklikning amal qilish mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

11-jadval

“Made in Uzbekistan” yorligʻi ostida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini rivojlantirish yoʻnalishlari²⁶

T/r	Sanoat yoʻnalishlari	Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari
1.	Toʻqimachilik sanoati	Toʻqimachilik, trikotaj va boshqa tayyor kiyimlar, gilamlar
2.	Charm-poyabzal sanoati	Poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari
3.	Ipakchilik sanoati	Ipakdan tayyor matolar, kiyimlar, gilamlar va boshqa buyumlar
4.	Oziq-ovqat sanoati	Quritilgan, qadoqlangan va konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari, spirtsiz ichimliklar (<i>energetik ichimliklardan tashqari</i>), qadoqlangan goʻsht va kolbasa mahsulotlari, qandolat mahsulotlari
5.	Qurilish materiallari sanoati	Boʻyoqlar, kafel, santexnika mahsulotlari
6.	Elektrotexnika sanoati	Elektrotexnika mahsulotlari
7.	Farmasevtika sanoati	Dori-darmonlar, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika, biologik faol qoʻshimchalar
8.	Zargarlik sanoati	Tayyor zargarlik buyumlari
9.	Mebelchilik sanoati	Tayyor mebellar
10.	Kimyo, parfyumeriya va kosmetika sanoati	Kimyo vositalari, shu jumladan, kosmetika, parfyumeriya, shampun, sovun
11.	Avtomobil sanoati	Avtotransport vositalari va butlovchi qismlar
12.	Metallurgiya sanoati	Metall mahsulotlar va buyumlar

Shuningdek, keyingi yillarda mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlarida ishlab chiqarish sanoati korxonalari faoliyatida nufuzli xalqaro brendlar bilan milliy brendlar oʻrtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda “Made in Uzbekistan” yorligʻi ostida milliy sanoat ishlab chiqarishi korxonalari faoliyatini global qoʻshilgan qiymat zanjiriga integratsiyalashuvini qoʻllab-quvvatlash talab etiladi.

“Made in Uzbekistan” yorligʻi ostida ishlab chiqarish sanoatining quyidagi 11-jadvalda keltirib oʻtilgan yoʻnalishlari boʻyicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni sotish koʻrsatkichlari yuqori va oʻrta darajadagi barqarorlik reytingiga ega boʻlgan mahalliy korxonalar faoliyatini rivojlanishi uchun davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan qoʻshimcha shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi.

Shu bilan birlikda, mintaqaviy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va unda raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotiga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq, hisoblanadi. Jahon amaliyoti tahliliga koʻra, ishlab chiqarish sanoati korxonalarida bu turdagi birgina “EMS”

²⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

texnologiyasidan foydalanilishi hisobiga ishlab chiqarish harajatlari tarkibida yengil sanoat korxonalarida 27,8 foizgacha, og‘ir sanoat korxonalarida esa 45,6 foizgacha elektr energiyasi va boshqa turdagi yonilg‘i xarajatlarini qisqartirishga erishiladi. Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu holat keyingi yillarda mamlakatimizda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlari samaradorligini oshirish orqali global qo‘shilgan qiymat zanjirida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlariga avtomatlashtirish va raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish kerak bo‘ladi. Bunda jahondagi yetakchi brend korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan “EMS”, “ERP”, “CRM”, “CERM” kabi axborot kommunikatsion texnologiyalar industriyasi mahsulotlarini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu turdagi texnologiyalarni ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish uchun kamida 1,0 mln. AQSh dollar ekvivalentiga teng bo‘lgan miqdorda grantlar ajratish talab etiladi.

Iqtisodiy-matematik usullar asosida o‘tkazilgan tahlil natijalari shakllantirilgan gipotezaga muvofiq, mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish mumkinligini ko‘rsatdi. Bunda Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish jarayonlarini chuqurlashtirish hisobiga aholi jon boshiga ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmining o‘sishi bo‘yicha bazaviy, pessimistik va optimistik ssenariylarga asoslangan prognoz ko‘rsatkichlari hisob-kitob qilindi.

Dastlabki prognoz ko‘rsatkichlar bazaviy ssenariylarga asoslangan bo‘lib, bunda 2010–2023-yillar mobaynida mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda kuzatilgan rivojlanish tendensiyalari saqlanib qolishiga asoslanildi va u quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$y = 0,0987x^2 - 0,2326x + 1,3632$$


Bazaviy ssenariylar asosida Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida kichik iqtisodiy va sanoat zonalarida kichik sanoat ishlab chiqarishi korxonalari faoliyatini rivojlantirish asosida respublika hududlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish bo‘yicha davlat dasturlari shu yo‘sinda davom ettirilishi hisobiga 2027-yilga borib mamlakatda aholi jon boshiga ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari hajmi 2023-yilga nisbatan 55,9 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi (8-rasmga qarang).

Shuningdek, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida keyingi yillarda mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish borasidagi davlat dasturlarini amalga oshirilishiga ustuvorlik qaratilmasligi, jumladan, bu boradagi islohotlar to‘xtatilishi kabi omillarga asoslanib pessimistik ssenariylarga muvofiq prognoz ko‘rsatkichlari quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$y = 0,0558x^2 + 0,3605x - 0,0349$$

Pessimistik ssenariylarga muvofiq, keyingi yillarda mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlariga ustuvorlik qaratilmasligi va ularning to‘xtatilishi natijasida 2023-yilga

nisbatan baholanganda, 2027-yilga borib aholi jon boshiga ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari hajmi 22,6 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi (8-rasmga qarang). Ushbu holat so‘nggi yillarda respublika hududlarida tashkil etilgan kichik iqtisodiy va sanoat zonalarida mintaqaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish borasida amalga oshirilgan investitsion loyihalar samaradorligi hisobiga past darajadagi o‘shish tendensiyasi kuzatilishi bilan izohlanadi.



8-rasm. Yangi O‘zbekiston sharoitida mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish jarayonlari samaradorligining prognozlari²⁷

So‘nggi optimistik ssenariy yuqorida bildirib o‘tilgan fikrlar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarga asoslangan holda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish borasidagi islohotlarga ustuvorlik qaratilishiga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, uni hisoblash formulasi quyidagi tartibda shakllantirildi:

$$y = 0,1416x^2 - 0,8257x + 2,7613$$

Optimistik ssenariylarga muvofiq, 2024–2027-yillarda mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishga ustuvorlik qaratilishi, jumladan, kichik sanoat korxonalari faoliyatini kengaytirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ta’sirchan mexanizmiga o‘tilishi, kichik sanoat korxonalari o‘rtasida kichik innovatsion kooperatsiyalarni tashkil etish, mahalliy ishlab chiqarish sanoati korxonalari faoliyatini xalqaro brendlar bilan integratsiyalash, ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng imkoniyatlarning yaratilishi hisobiga prognoz qilinayotgan davrda aholi jon boshiga ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari hajmi 89,3 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi (8-rasmga qarang).

Iqtisodiy-matematik usullar asosida mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish jarayonlari samaradorligini baholash va uning o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan muqobil ssenariylarini ishlab chiqish natijalariga ko‘ra, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida belgilangan ustuvor maqsad va vazifalar, jumladan, “qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2,0 barobarga oshirish, sanoatda

²⁷ Muallif tomonidan hisoblangan.

qo‘shilgan qiymat hajmini 45 mlrd. dollarga yetkazish”²⁸ kabi vazifalarni o‘z vaqtida samarali hal etish imkoniyati mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

XULOSA

Barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni kuchaytirish yo‘nalishlariga bag‘ishlangan dissertatsiya ishini bajarish asosida quyidagi ilmiy xulosalar olinib, tegishli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Barqaror rivojlanish strategiyasi bir vaqtning o‘zida iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik nazariyalarga ajratish mumkin bo‘ladi.

2. Jahon xo‘jaligida mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyalari asosida amalga oshirishning innovatsion, eko-sanoatlashtirish, klasterli sanoatlashuv, agrosanoat hamda raqamli sanoatlashtirish modellari o‘zaro farqlanib, har bir model mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida aamalgaga oshirilayotgan davlat dasturlari ustuvorliklaridan kelib chiqib, turlarga ajratilgan.

3. Yangi O‘zbekiston sharoitida mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda maxsus imtiyozli zonalarini tashkil etish asosida hududdagi sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini ular o‘rtasida integratsion-kooperatsion munosabatlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy dastaklar asosida imtiyozli shartlar, jumladan, soliq imtiyozlari ajratish, investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tijorat banklari kreditlarini imtiyozli shartlar asosida taklif etish orqali davlatning faol dasturlarini amalga oshirishga ustuvorlik qaratiladi.

4. Mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasi asosida amalga oshirishda “Ilg‘or sanoat korxonasi” loyihalari ochiq tanloviga asoslanilishi respublika “og‘ir” hududlarining sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligi oshiradi. Shu bilan birgalikda, “Ilg‘or sanoat korxonasi” loyihalari ochiq tanlovini o‘tkazishning dastlabki yillarida oziq-ovqat, tekstil-to‘qimachilik, elektrotexnika, charm-poyabzal, zargarlik, mebelsozlik, qurilish materiallari, polimer-kimyo va mashinasozlik kabi sanoat tarmoqlarida o‘tkazilishi samarali ekanligi belgilandi.

5. Mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlari samaradorligini oshirishdagi moliyaviy muammolarni hal etishda maxsus “Sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni kreditlash” tizimini joriy etish lozim. Ushbu tizim byudjet va byudjetdan tashqari sanoatni rivojlantirish maqsadli fondlarining moliyaviy resurslaridan tijorat banklariga ajratiladigan moliyaviy resurslar hisobidan sanoat ishlab chiqarishini imtiyozli shartlar asosida 10 yil muddatga kreditlash amaliyotiga o‘tishni nazarda tutadi.

6. Mamlakatimiz mintaqaviy sanoatlashuvini barqaror rivojlantirish strategiyasi borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda kichik sanoat korxonalari o‘rtasida

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023 <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

integratsion munosabatlarni kuchaytirish asosida innovatsion yo‘nalishdagi kichik sanoat koopertivlari faoliyatini tashkil etish orqali mahsulot ishlab chiqarishning to‘liq zanjirini o‘zlashtirishga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan mexanizm asosida kichik sanoat korxonalari kooperativlarini rivojlantirilishi resurslarning tarmoqlararo va respublika hududlari kesimida o‘zaro mutanosiblikda taqsimlash imkonini beradi.

7. Mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishda quyidagi yo‘nalishlarda barqaror rivojlanish tamoyillaridan foydalanish zarur: birinchi, kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarda “CSV” va “CSR” tamoyillaridan; ikkinchi, mamlakatning yirik va strategik ahamiyat kasb etuvchi sanoat korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda “ESG” hamda “RBC” tamoyillaridan; uchinchi, hududlarning investitsion jazibadorligini oshirishda “ESG” va “CSV” tamoyillaridan; to‘rtinchi, “SDG” tamoyili asosida davlat va xususiy sheriklikning amal qilish mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

8. Mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish jarayonlarida ishlab chiqarish sanoati korxonalari faoliyatida nufuzli xalqaro brendlar bilan milliy brendlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda “Made in Uzbekistan” yorlig‘i ostida milliy sanoat ishlab chiqarishi korxonalari faoliyatini global qo‘shilgan qiymat zanjiriga integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.

9. Mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish samaradorligi bo‘yicha ishlab chiqilgan prognozlarga ko‘ra, 2024–2027-yillarda mamlakatda aholi jon boshiga ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi bazaviy ssenariyda – 55,9 foizga, pessimistik ssenariyda – 22,6 foizga, optimistik ssenariyda esa – 89,2 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КОСИМОВА ХИЛОЛА ЖАМШЕДОВНА

**НАПРАВЛЕНИЯ УСИЛЕНИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ
ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ НА ОСНОВЕ СТРАТЕГИИ УСТОЙЧИВОГО
РАЗВИТИЯ.**

08.00.12 – Региональная экономика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD)
по экономическим наукам

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована за номером B2025.2.PhD/Iqt361 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан

Диссертационная работа выполнена в Бухарском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Явмутов Дилшод Шойимардонкулович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Арабов Нурали Уралович**
доктор экономических наук, профессор

Хидирова Гавхар Рустамовна
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: **Каршинский государственный технический университет.**

Защита диссертации состоится «30» октября 2025 года в 16:00 часов на заседании разового научного совета на основе Научного совета DSc.03/27.09.2024.1.72.05 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икбол, д.11. Тел.: (99865) 221-29-14, (998 65) 221-27-07; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (регистрационный № 742). (Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икбол, д.11. Тел.: (99865) 221-25-87; e-mail: buxdu_arm@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «10» октября 2025 года
(реестр протокола рассылки № 30 от «10» октября 2025 года)



О.Х.Хамидов

Председатель разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Н.С. Ибрагимов

Ученый секретарь разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Б.Н. Навруз-зода

Председатель разового научного совета на основе научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. На международном уровне в различных национальных экономиках осуществляются реформы, направленные на повышение доли местных компаний в глобальной цепочке добавленной стоимости за счёт производства более передовой продукции, соответствующей экологическим стандартам, а стратегии устойчивого развития рассматриваются как ключевой элемент регионального развития. Согласно международным исследованиям в данном направлении, «такие страны, как Китай, США, Япония и Германия, занимают лидирующие позиции по объёму создаваемой добавленной стоимости в глобальном промышленном производстве. В частности, на долю одного лишь Китая приходится 30,9% общего объёма глобальной добавленной стоимости в промышленности. Промышленное производство Китая характеризуется относительно высоким уровнем цифровой трансформации и роботизации.»¹

В мире исследования, направленные на развитие общества на основе подхода к устойчивому развитию, расширяются по всему миру. В число стратегических задач входят максимально эффективное использование производственного потенциала каждой страны, повышение глобального и регионального опыта посредством сравнительного анализа, обеспечение общей производственной эффективности, поддержка инноваций, включение экологических стандартов в национальные стратегии, развитие стратегий цифровой трансформации и содействие устойчивому развитию местной промышленности.

Приоритетные направления реформ в области региональной индустриализации Нового Узбекистана характеризуются стремлением повысить эффективность использования производственного потенциала областей республики, включая города и районы, обеспечить инновационную активность и освоить полную цепочку производства продукции. В последние годы особое внимание уделяется реформам, направленным на “Увеличение объёмов производства промышленной продукции в стране, расширение ассортимента производимых товаров с целью эффективного удовлетворения потребностей населения в потребительских товарах”². Мероприятия в области региональной индустриализации реализуются в тесной связи с программами локализации производства промышленной продукции. Данная ситуация свидетельствует о научной и практической актуальности повышения эффективности процессов региональной индустриализации на основе стратегии устойчивого развития в стране.

Данная диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных в Законах Республики Узбекистан от 24

¹ Thomas, D (2023) Annual Report on the U.S. Manufacturing Economy: 2023. (National Institute of Standards and Technology, Gaithersburg, MD), NIST Advanced Manufacturing Series 600-13-upd1. – 64 p.

² Постановление Президента Республики Узбекистан № PQ-4426 “О дальнейшем повышении ответственности органов государственной и хозяйственной власти, а также органов местного исполнительного управления за внедрение новой системы локализации производства и активизацию кооперационных связей в отраслевых промышленных секторах”. 24.08.2019 у. <https://lex.uz/ru/docs/4486600>

июля 2020 года № ЗРУ-630 «О инновационной деятельности», от 17 февраля 2020 года «О специальных экономических зонах», в Указах Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2022 года № ПП-165 «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии “Узбекистан – 2030”», от 12 октября 2023 года № УП-169 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности и её базовых отраслей», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 26 августа 2021 года № ПП-5234 «О мерах по внедрению специального режима применения технологий искусственного интеллекта», от 2 декабря 2022 года № ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к «зелёной» экономике до 2030 года», а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

